



Aviatsiya ingliz tili esp kursining nazariy va uslubiy asoslari

Ikromova Nigina Xayrulloevna –
Tashkent International University
Foreign Languages Department Teacher-assistant
E-mail: nigina.ikromova.01@mail.ru
ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-0488-5637>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Aviation English yo'nalishidagi ESP (English for Specific Purposes) kursining nazariy va uslubiy asoslari yoritiladi. Tadqiqot aviatsiya sohasida faoliyat yurituvchi aviadispatcherlar hamda aviatsiya texnik xodimlari uchun mo'ljallangan B1 darajadagi ESP kursini loyihalashga qaratilgan. Maqolada kursning ehtiyojlar tahlili, o'quvchilar tavsifi, o'qitish yondashuvlari, baholash tizimi va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Problem-Based Learning (PBL) yondashuvi hamda madaniyatlararo kommunikatsiya tamoyillarining Aviation English kursidagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari aviatsiya xodimlarining professional kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ESP kurslarining samaradorligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ESP, Aviation English, kommunikativ kompetensiya, Problem-Based Learning, needs analysis, aviadispatcher, aviatsiya texnigi.

Теоретические и методические основы ESP-курса авиационного английского языка

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы курса ESP (English for Specific Purposes) по авиационному английскому языку. Исследование направлено на разработку курса уровня B1 для авиадиспетчеров и специалистов по техническому обслуживанию авиационной техники. В статье анализируются потребности обучающихся, особенности курса, методы обучения, система оценивания и развитие коммуникативной компетенции. Особое внимание уделяется методу Problem-Based Learning (PBL) и межкультурной коммуникации в обучении авиационному английскому языку. Результаты исследования подтверждают эффективность ESP-курсов в развитии профессиональной коммуникативной компетенции авиационных специалистов.

Ключевые слова: ESP, авиационный английский, коммуникативная компетенция, Problem-Based Learning, анализ потребностей, авиадиспетчер, авиационный техник.

Theoretical and methodological foundations of the esp course in aviation english

Annotation. This article discusses the theoretical and methodological foundations of an ESP (English for Specific Purposes) course in Aviation English. The study focuses on designing a B1-level ESP course for air traffic controllers and aviation maintenance technicians. The article analyzes needs analysis, learner characteristics, teaching approaches, assessment methods, and the development of communicative competence. In addition, the significance of Problem-Based Learning (PBL) and intercultural communication principles in Aviation English instruction is highlighted. The findings demonstrate the effectiveness of ESP courses in improving the professional communicative competence of aviation personnel.

Keywords: ESP, Aviation English, communicative competence, Problem-Based Learning, needs analysis, air traffic controller, aviation maintenance technician.

KIRISH

Bugungi globalashuv davrida aviatsiya sohasi xalqaro kommunikatsiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aviatsiya xavfsizligi, operatsion samaradorlik hamda xalqaro hamkorlik bevosita aniq va samarali kommunikatsiyaga bog'liqdir. Shu sababli Aviation English zamonaviy aviatsiya xodimlari uchun zarur kasbiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa aviadispetcherlar va aviatsiya texnik xodimlari kundalik faoliyatida texnik hujjatlar, xavfsizlik qoidalari, parvoz ma'lumotlari va operatsion protseduralar bilan ishlash jarayonida ingliz tilidan faol foydalanadi.

ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi aynan ma'lum kasbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan til o'qitishni nazarda tutadi. Aviation English kurslari umumiy ingliz tilidan farqli ravishda aviatsiyaga oid terminologiya, standart frazeologiya, favqulodda vaziyatlardagi kommunikatsiya hamda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu kurslar nafaqat til kompetensiyasini, balki professional faoliyatdagi tezkor qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – B1 darajadagi aviadispetcherlar va aviatsiya texnik xodimlari uchun Aviation English ESP kursining nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

ESP yo'nalishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tilni kasbiy ehtiyojlarga moslashtirishning muhimligini ta'kidlaydi. Woodrow (2018) ESP kurslarini loyihalashda ehtiyojlar tahlili, kommunikativ yondashuv va autentik materiallardan foydalanish muhim ekanligini qayd etadi. Muallifning fikriga ko'ra, kurs mazmuni bevosita o'quvchilarning professional faoliyati bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Belcher ESPni zamonaviy til ta'limining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholab, kasbiy kommunikatsiyada madaniyatlararo kompetensiyaning ahamiyatini ko'rsatadi. Ayniqsa xalqaro aviatsiya muhitida turli millat vakillari bilan ishlash jarayonida kommunikativ moslashuv muhim omil hisoblanadi, Swalesmkommunikativ til o'qitish yondashuvini ESP kurslarida samarali metod sifatida tavsiya qiladi. Uning yondashuvi real hayotiy vaziyatlar orqali til o'rgatishga asoslangan bo'lib, aviation communication

jarayonida role-play va simulyatsiya metodlarining samaradorligini oshiradi. Serafini, Lake va Long ehtiyojlar tahlilida mixed-methods yondashuvining ahamiyatini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, so'rovnomalar va intervyular orqali o'quvchilarning real til ehtiyojlarini aniqlash ESP kursining muvaffaqiyatini belgilaydi.

O'Sullivan va Cumming esa ESP baholash tizimida autentik vazifalar muhim ekanligini ko'rsatadi. Aviation English kurslarida diagnostik, formatif va summativ baholash usullari o'quvchilarning real ish faoliyatidagi kommunikativ tayyorgarligini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Ochilzoda zamonaviy xalqaro jamiyatda ESP yo'nalishining jadal rivojlanayotganini ta'kidlaydi. Muallif ESP kurslari global mehnat bozori ehtiyojlariga moslashayotganini hamda professional kommunikatsiya samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini qayd etadi. Ayniqsa texnologik va xalqaro sohalarda, jumladan aviatsiyada, English for Specific Purposes yondashuvi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida baholanadi. Ushbu qarash Aviation English kurslarini zamonaviy va ehtiyojga asoslangan tarzda loyihalash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotda Aviation English ESP kursining samaradorligini tahlil qilish uchun bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: Birinchidan, ehtiyojlar tahlili (Needs Analysis) amalga oshirildi. Bunda aviadispatcherlar va aviatsiya texnik xodimlari orasida so'rovnomalar hamda intervyular o'tkazildi. Ushbu yondashuv tinglovchilarning kasbiy kommunikativ ehtiyojlari, til bilan bog'liq qiyinchiliklari va o'quv maqsadlarini aniqlash imkonini berdi. Ikkinchidan, kurs dizayni uchun Problem-Based Learning (PBL) yondashuvi tanlandi. Ushbu metod real aviatsiya muammolari va professional vaziyatlar asosida o'qitishni tashkil etishga yordam beradi. Role-play, juftlik va guruh ishlari, simulyatsiyalar hamda texnik hujjatlar bilan ishlash kabi interaktiv metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida diagnostik, formatif va summativ baholash usullari qo'llanildi. Diagnostik test orqali talabalar boshlang'ich til darajasi aniqlandi. Formativ baholash davomiy kuzatuv va fikr-mulohazalar asosida olib borildi. Summativ baholash esa kurs oxirida barcha til ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda baholashga qaratildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Aviation English kursida o'quvchilarning asosiy ehtiyojlari speaking va listening ko'nikmalariga bog'liqdir. Aviatsiya muhiti yuqori aniqlik va tezkor reaksiyani talab qilgani sababli, turli aksentlarni tushunish, favqulodda vaziyatlarga javob qaytarish hamda standart frazeologiyani to'g'ri qo'llash eng muhim kompetensiyalar sifatida namoyon bo'ldi.

O'quvchilar tarkibi asosan 20–30 yosh oralig'idagi aviadispatcherlar va aviatsiya texniklaridan iborat bo'lib, ularning lingvistik fonini o'zbek, rus va tojik tillari tashkil qiladi. Bu esa madaniyatlararo kommunikatsiya va talaffuz bilan bog'liq ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Kurs davomida texnologiyalardan foydalanish samarali natija berdi. Multimedia materiallari, aviatsiya simulyatsiyalari va audio yozuvlar orqali autentik kommunikativ muhit yaratildi. Ayniqsa role-play faoliyatlari orqali o'quvchilar favqulodda vaziyatlarda ingliz tilida tezkor muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Tahlillar shuningdek PBL yondashuvining samaradorligini ko'rsatdi. Real aviatsiya vaziyatlari asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Kurs yakunidagi summativ baholash natijalari o'quvchilarning Aviation English kompetensiyasida sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatdi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Aviation English ESP kurslari aviatsiya xodimlarining professional kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini

ko'rsatdi. Ayniqsa speaking va listening ko'nikmalarini real ish faoliyati bilan integratsiyalash kurs samaradorligini oshirdi. Shuningdek, ehtiyojlar tahliliga asoslangan kurs dizayni o'quvchilarning professional talablariga mos ta'lim mazmunini yaratishga imkon berdi. Problem-Based Learning yondashuvi esa amaliy kommunikatsiyani rivojlantirish bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham shakllantirdi.

Kelgusida Aviation English kurslarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- auzentik aviatsiya materiallari bazasini kengaytirish;
- ICAO standartlariga mos audio va video materiallardan foydalanishni kuchaytirish;
- madaniyatlararo kommunikatsiya elementlarini kurs tarkibiga chuqurroq integratsiya qilish;
- simulyatsion texnologiyalar va virtual treninglardan foydalanishni rivojlantirish;
- aviatsiya xodimlari uchun muntazam malaka oshirish ESP dasturlarini tashkil etish.

Mazkur yondashuvlar aviatsiya xavfsizligi va xalqaro professional kommunikatsiya sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arnó-Macià E. The role of technology in teaching languages for specific purposes courses // The Modern Language Journal. – 2012. – Vol. 96, Special Issue 1. – P. 89–104.
2. Belcher D. D. Trends in teaching English for specific purposes // Annual Review of Applied Linguistics. – 2004. – Vol. 24. – P. 165–186. DOI: 10.1017/S026719050400008X.
3. Bosher S. D. English for cross-cultural nursing // Woodrow L. Introducing Course Design in English for Specific Purposes. – Abingdon; New York: Routledge, 2018. – P. 196–205.
4. Cumming A. ESP assessment and real-world communication tasks // TESOL Journal. – 2001.
5. Flowerdew L. Needs analysis and curriculum development in ESP // The Handbook of English for Specific Purposes / eds. B. Paltridge, S. Starfield. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2013. – P. 325–346. DOI: 10.1002/9781118339855.ch17.
6. Ochilzoda F. A. New developments in English language instruction: The growth of English for specific purposes (ESP) in an international society // New Renaissance International Scientific Journal. – 2026. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19997746>.
7. O'Sullivan B. Assessment issues in languages for specific purposes // The Modern Language Journal. – 2012. – Vol. 96, Special Issue 1. – P. 71–88. DOI: 10.1111/j.1540-4781.2012.01298.x.
8. Serafini E. J., Lake J. B., Long M. H. Needs analysis for specialized learner populations: Essential methodological improvements // English for Specific Purposes. – 2015. – Vol. 40. – P. 11–26. DOI: 10.1016/j.esp.2015.05.002.
9. Swales J. M. Communicative language teaching in ESP contexts // Annual Review of Applied Linguistics. – 1987. – Vol. 8. – P. 48–57. DOI: 10.1017/S026719050000101X.
10. Viana V., Bocorny A., Sarmiento S. Teaching English for Specific Purposes. – Alexandria, VA: TESOL Press, 2018. – 60 p.
11. Woodrow L. Introducing Course Design in English for Specific Purposes. – Abingdon; New York: Routledge, 2018.